O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA FE’L TURKUMI TADQIQINING BOSQICHLARI: GRAMMATIK TAVSIFDAN INGLIZ–O‘ZBEK CHOG‘ISHTIRMA-SEMANTIK TAHLILGACHA

X. Ibotova

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, “Filologiya” kafedrasi assistent o‘qituvchisi, Qarshi, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek tilshunosligida fe’l turkumi tadqiqining rivojlanish bosqichlari A. Fitrat qarashlari hamda 1946–2025 yillardagi o‘n to‘qqizta tadqiqot asosida tahlil qilinadi. Manbalar obyekti va metodologik xususiyatiga ko‘ra to‘rt bosqichga ajratildi: grammatik shakl va zamon kategoriyalari; semantik guruhlar, valentlik va stilistika; qardosh turkiy tillar bilan qiyos va lug‘aviy shakllar; antropotsentrik hamda ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma yo‘nalish. Aniqlanishicha, ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma tadqiqotlar so‘nggi yillarda shakllangan va ularning har biri fe’lning bitta semantik guruhini qamragan. Nutqiy faoliyat fe’llarini tizim sifatida o‘rganish va leksikografik talqin qilish istiqbolli yo‘nalish sifatida asoslandi.

Kalit so‘zlar: fe’l turkumi, o‘zbek tilshunosligi, semantik guruh, valentlik, graduonimiya, chog‘ishtirma tahlil, leksikografik talqin, nutqiy faoliyat fe’llari.

Abstract. The article traces the stages of research on the verb class in Uzbek linguistics on the basis of A. Fitrat’s views and nineteen studies from 1946–2025. The sources are divided into four stages: grammatical forms and tense categories; semantic groups, valency and stylistics; comparison with related Turkic languages and lexical forms; and the anthropocentric and English–Uzbek contrastive approach. The English–Uzbek contrastive studies appeared only recently, and each covers a single semantic group of verbs. A systemic and lexicographic study of speech-activity verbs is substantiated as a promising direction.

Keywords: verb class, Uzbek linguistics, semantic group, valency, graduonymy, contrastive analysis, lexicographic interpretation, speech-activity verbs.

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Har qanday til tizimida harakat va holatni ifodalash nutqning mazmuniy rivojini ta’minlovchi birlamchi omil sanaladi. O‘zbek tili grammatik qurilishida fe’l turkumi boy morfologik shakllari, serqirra sintaktik imkoniyatlari va murakkab semantik xususiyatlari bilan markaziy o‘rin egallaydi: fe’l gapning strukturaviy asosini shakllantirib, boshqa bo‘laklarni o‘z atrofiga birlashtiradi, zamon, mayl, shaxs-son va nisbat kategoriyalari orqali fikrning reallikka munosabatini bildiradi. Shu sababli fe’l turkumini tadqiq qilish tilshunoslik fan sifatida ajralgan davrlardanoq boshlangan.

O‘zbek tilshunosligida fe’l turli bosqichlarda turli jihatdan – grammatik shakllar, zamon kategoriyalari, ma’noviy guruhlar, qardosh tillar bilan qiyos va antropotsentrik

yondashuv nuqtayi nazaridan – o‘rganildi. Bu tadqiqotlarni yaxlit tarixiy-konseptual manzarada tizimlashtirish fe’lning ayrim semantik guruhlari, xususan, nutqiy faoliyat fe’llarini o‘rganishdagi ehtiyoj va imkoniyatlarni aniqlash uchun zarur. Maqolaning maqsadi – o‘zbek tilshunosligida fe’l turkumi tadqiqining asosiy bosqichlarini aniqlash, har bir bosqichning obyekti va metodologik xususiyatlarini ko‘rsatish hamda ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma yo‘nalishidagi istiqbollarni baholash. Vazifalar: (1) manbalarni obyekt va metodiga ko‘ra tavsiflash; (2) ularni bosqichlarga ajratish; (3) bosqichlararo izchillikni aniqlash; (4) chog‘ishtirma tadqiqotlarning natijalari va hal etilmagan masalalarini ko‘rsatish.

2. METODLAR (METHODS)

Tadqiqot nazariy-analitik sharh xarakteriga ega. Tahlilga A. Fitratning tanlangan asarlari to‘plami, 12 ta nomzodlik, 2 ta doktorlik va 4 ta falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi hamda 1 ta monografiya – jami 20 ta manba jalb etildi. Manbalar tanlovi mezonlari: o‘zbek tilidagi fe’l yoki uning semantik guruhi tadqiq obyekti bo‘lishi; ishning dissertatsion yoki monografik xarakterga ega bo‘lishi; chog‘ishtirma ishlarda o‘zbek tili asosiy yoki teng qiyoslanuvchi til bo‘lishi.

Tavsifiy-analitik, tarixiy-xronologik, tasniflash va qiyosiy metodlardan hamda kontent-tahlildan foydalanildi. Har bir manba obyekti, til materiali, metodi va asosiy natijasi bo‘yicha tavsiflandi. Bosqichlar ajratishda yetakchi tadqiqot obyekti va metodologik yo‘nalish mezon qilib olindi; bosqichlar o‘rtasidagi xronologik chegara nisbiy bo‘lib, ayrim ishlar parallel bajarilgan. Sharh tanlanma xarakterga ega.

3. NATIJALAR VA TAHLIL (RESULTS)

1-jadval. O‘zbek tilshunosligida fe’l turkumi tadqiqining bosqichlari

Bosqich	Manbalar, yillar	Asosiy obyekt	Metod	Asosiy natija
I. Grammatik shakl va zamon kategoriyalari	[1–6]; 1946–1969 (A. Fitrat – 2006-yil nashri)	Fe’l tarkibi, qo‘shma va to‘liqsiz fe’llar, hozirgi va kelasi zamon shakllari	Morfologik va sintaktik tavsif; sheva materiali	Fe’l tarkibini ajratish; sintetik va analitik shakllar; zamonning modal ma’nolari
II. Semantik guruhlar, valentlik, stilistika	[7–10]; 1967–1999	Harakat, ko‘ruv va yo‘nalma harakat fe’llari; fe’l stilistikasi	Semik tahlil, valentlik, semantik maydon	Semantik mikroguruhlar; birikuvchanlik; uslubiy differensiatsiya

Bosqich	Manbalar, yillar	Asosiy obyekt	Metod	Asosiy natija
III. Qardosh tillar bilan qiyos va lug‘aviy shakllar	[11–15]; 1998–2008	O‘tgan zamon va harakat fe’llari, lug‘aviy shakllar, “qilmoq” fe’li	Qiyosiy, komponent tahlil; antropotsentrik yondashuv	Tarjimadagi farqlar; ikki tilli lug‘at uchun material; yagona leksemaning mikrotizimi
IV. Antropotsentrik va ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma yo‘nalish	[16–20]; 2023–2025	Graduonimiya, kauzativ, ruhiy holat, tafakkur va nutqiy faoliyat fe’llari	Semantik maydon, tipologiya, leksikografik modellashtirish	Mikromaydonlar; semantik assimetriya; o‘quv-izohli lug‘at modellari

3.1. Grammatik shakl va zamon kategoriyalari bosqichi.

A. Fitrat fe’lni “bir ishni, bir zamonni, ishlaguchining so‘ylaguchiga nisbatini bildirgan so‘z” deb ta’riflab, uni o‘zak, zamon belgisi va ishlovchi belgisidan iborat tarkibiy qismlarga ajratdi [1]. Bu ta’rif fe’lning leksik-semantik tabiatini, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlik va mayl kategoriyalarini qamramagan bo‘lsa-da, fe’l tarkibini tizimli ajratish va uni sintaktik vazifalar bilan bog‘lashdagi ilk dadil nazariy qadam bo‘ldi. S. Akbarov qo‘shma fe’llarni analitik tuzilma sifatida o‘rganib, ko‘makchi fe’l birlamchi lug‘aviy ma’nosini qisman yo‘qotib, semantik yukni yetakchi komponentga o‘tkazishini ko‘rsatdi [2]. A. Hojiyev hozirgi zamon fe’lining sintetik va analitik shakllarini farqladi [3]; K. Usmonov hozirgi zamon shakllarining shevalardagi ifodasini tadqiq qildi [4]; A. Hojiyev doktorlik ishida edi, ekan, emish kabi to‘liqsiz fe’llarni tahlil qilib, ularning “to‘liqsizligi” semantik yuklamaga ega emasligi bilan belgilanishini ko‘rsatdi [5]; J. Jo‘rayeva kelasi zamon shakllarining maqsad, gumon, istak va ehtimol kabi modal ma’nolarini ochib berdi [6].

3.2. Semantik guruhlar, valentlik va stilistika bosqichi.

Q. Xoliqov harakat fe’llarini alohida guruh sifatida o‘rganib, ularning semik tarkibi, valentligi, sinonimik-antonimik qatorlarini aniqladi va yo‘nalish, tezlik hamda davomiylik bo‘yicha mikroguruhlarga ajratdi [7]. K. Rahmonberdiyev ko‘ruv tuyg‘usini ifodalovchi fe’llarni semantik guruhchalarga ajratib, ularning sinonimik uyalari, antonimik juftliklari va valentlik munosabatlarini yoritdi [8]. M. Sodiqova fe’l semantikasining badiiy, publitsistik, ilmiy va so‘zlashuv uslublarida differensiatsiyalashuvini hamda emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik, ko‘chma ma’no va ko‘pma’nolilikning funksional rolini tadqiq qildi [9]. S. Muhamedova yo‘nalma harakat fe’llari misolida fe’l semantikasining birikish qobiliyatiga ta’sirini dalillab, bu fe’llarning kesim, ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi va hol vazifasida kelish xususiyatlarini tahlil qildi [10].

3.3. Qardosh tillar bilan qiyos va lug‘aviy shakllar bosqichi.

U. Feyda o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi o‘tgan zamon fe’llarini badiiy nutqda qiyoslab, zamon shakllarining tarjimada noto‘g‘ri berilishi sabablarini aniqladi [11]; Z. Xudoyberganovaning o‘zbek va turk tillaridagi fe’l zamonlariga bag‘ishlangan tadqiqoti shu ishning metodologiyasiga asoslangan [12]. B. Bahriddinova fe’lning lug‘aviy shakllarini antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganib, harakat tarzi shakllarining modal, subyektiv baho va miqdor ma’nolarini yuklash mexanizmini tahlil qildi [13]. J. Shabanov *ketmoq / gitmek, kelmoq / gelmek, bormoq / varmak* kabi faol harakat fe’llarini komponent tahlil usulida qiyoslab, natijalarni ikki tilli va izohli lug‘atlar tuzishda hamda tarjimonlikda qo‘llash mumkinligini ta’kidladi [14]. G. Isaqova esa yagona “qilmoq” fe’lining semantik xususiyatlarini, qo‘shma fe’l va turg‘un birikmalar hosil qilish salohiyatini tadqiq etdi [15].

3.4. Antropotsentrik va ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma yo‘nalish bosqichi.

M.B. Kasimova fe’llardagi semantik graduonimiya (darajalanish) hodisasini o‘rganib, graduonimik qatorlarning lug‘atlarda aks etish tamoyillari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqdi [16]. Sh.R. Karimjonova o‘zbek va ingliz tillaridagi kauzativ fe’llarni chog‘ishtirib, o‘zbek tilida 211 ta, ingliz tilida 234 ta morfologik kauzativ birlikni tahlil qildi; ingliz tilida analitik-sintaktik konstruksiyalar (*make, let, have, get*) dominantligini, o‘zbekcha orttirma nisbatdagi fe’llar (masalan, *sindirmoq*) inglizchaga ko‘pincha analitik konstruksiya (*make it break*) bilan mos kelishini ko‘rsatdi [17]. Sh.Z. Tashpulatova ruhiy holat fe’llarini “tafakkur”, “hissiyot”, “sezgi” va “harakatsizlik” mikromaydonlariga ajratdi, ikki tilda semik tarkibdagi assimetriyani va lug‘atlardagi farqni (ingliz izohli lug‘atlarida situativ-deskriptiv uslub, o‘zbek lug‘atchiligida tavtologiya va ma’nodoshlarga haddan ziyod tayanish) aniqlab, o‘quv-izohli tarjima lug‘ati modelini taklif etdi [18]. Z.X. Abidova tafakkur fe’llarini oltita mikromaydonga (tushunish, bilish, xotira, qaror qabul qilish, rejalashtirish, tasavvur) ajratib, “Oxford”, “Cambridge”, “Webster”, “Longman” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” asosida leksikografik talqinni tahlil qildi [19]. D.A. Ziyoyeva ingliz tilidagi *to speak, to say, to talk, to tell* va o‘zbek tilidagi *gapirmoq, aytmoq, demoq, so‘zlamoq* fe’llarini leksik-semantik variantlar kesimida qiyoslab, *to speak* va *gapirmoq* o‘z sinonimik qatorida dominant ekanini dalillagan [20].

3.5. Umumlashma.

Yigirma manbadan to‘rttasi ingliz–o‘zbek [17–20], uchtasi turkiy tillar [11, 12, 14] bo‘yicha chog‘ishtirma tadqiqotdir; barcha ingliz–o‘zbek ishlar 2024–2025 yillarga to‘g‘ri keladi. Bu ishlarning har biri fe’lning bitta semantik guruhini – kauzativlik, ruhiy holat, tafakkur yoki nutqiy faoliyatni – qamragan.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Bosqichlar o‘rtasidagi chegara nisbiy bo‘lsa-da, umumiy tendensiya aniq: tadqiqot e’tibori fe’l shakllarini tavsiflashdan (I bosqich) ma’noviy guruhlar va ularning birikuvchanligini (II), qardosh tillar bilan chog‘ishtirishni (III), so‘ngra inson omili va lug‘at talqini bilan bog‘liq masalalarni (IV) o‘rganishga ko‘chgan. Metodlar ham mos

ravishda morfologik va sintaktik tavsifdan semik, valentlik, maydon va graduonimik tahlilga hamda leksikografik modellashtirishga kengaygan.

Ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma tadqiqotlar [17–20] ikki umumiy natijaga ega: birinchidan, bir xil ma’noli fe’llarning semik tarkibida assimetriya mavjud va u tarjimada ekspressiv nomutanosiblikka olib keladi; ikkinchidan, ikki tilli va izohli lug‘atlarda bu fe’llar ekvivalentlari berilganda uslubiy bo‘yoqdorlik, valentlik va sintagmatik aloqalar yetarlicha aks etmaydi. Sh.Z. Tashpulatova va Z.X. Abidova bu muammoning yechimi sifatida o‘quv-izohli tarjima lug‘ati modellarini taklif etgan [18, 19].

Ko‘rib chiqilgan manbalar doirasida nutqiy faoliyat fe’llari D.A. Ziyoyeva ishida *to speak, to say, to talk, to tell* va ularning o‘zbekcha ekvivalentlarining paradigmatik aloqalari kesimida tahlil qilingan [20]. Ruhiy holat va tafakkur fe’llari uchun ishlab chiqilgan mikromaydonlarga ajratish va leksikografik modellashtirish tajribasi [18, 19] esa nutqiy faoliyat fe’llarining tizimi, semantik xususiyatlari va leksikografik talqinini ingliz va o‘zbek tillari misolida yaxlit o‘rganish uchun metodologik asos bo‘la oladi. Shu yo‘nalish muallifning dissertatsiya mavzusi doirasidagi tadqiqot yo‘nalishini ham belgilaydi.

5. XULOSA (CONCLUSION)

Birinchidan, o‘zbek tilshunosligida fe’l turkumi tadqiqi to‘rt bosqichda – grammatik shakl va zamon kategoriyalari, semantik guruhlar va valentlik, qardosh tillar bilan qiyos, antropotsentrik va ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma yo‘nalishlarda – rivojlangan. Ikkinchidan, ingliz–o‘zbek chog‘ishtirma tadqiqotlar so‘nggi yillarda shakllangan va fe’lning bittadan semantik guruhini qamragan. Uchinchidan, ularning umumiy natijasi semantik assimetriya va lug‘atlardagi nomutanosibliklarni aniqlash hamda o‘quv-izohli lug‘at modellarini taklif etishdan iborat. To‘rtinchidan, nutqiy faoliyat fe’llarini tizim sifatida va leksikografik jihatdan o‘rganish istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

[1] Фитрат А. Танланган асарлар, IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б. 146.

[2] Акбаров С. Ўзбек тилида қўшма феъл: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1946. – 233 б.

[3] Ҳожиев А. Ўзбек тилида ҳозирги замон феъли: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1959. – 140 б.

[4] Усмонов К. Ўзбек тили шеваларида феълнинг ҳозирги замон формалари: Филол. фанл. номз. дисс. – Самарқанд, 1969. – 170 б.

[5] Ҳожиев А. Ўзбек тилида тўлиқсиз феъл: Филол. фанл. д-ри дисс. – Тошкент, 1968. – 441 б.

[6] Жўраева Ж. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида келаси замон феъли: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1961. – 175 б.

[7] Холиқов Қ. Ҳозирги замон ўзбек тилида ҳаракат феъллари: Филол. фанл. номз. дисс. – Самарқанд, 1967. – 274 б.

[8] Раҳмонбердиев К. Ўзбек тилида кўрув туйғусини ифодаловчи феъллар: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1969. – 152 б.

[9] Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида феъл стилистикаси (семантик аспектда): Филол. фанл. д-ри дисс. – Тошкент, 1991. – 288 б.

[10] Муҳамедова С. Ўзбек тилида йўналма ҳаракат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1999. – 122 б.

[11] Фейда У. Ўзбек ва уйғур тилларидаги ўтган замон феълларининг бадиий нутқда ишлатилиши: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1998. – 149 б.

[12] Худойберганова З. Ўзбек ва турк тилларида феълнинг ўтган замон шакллари тизими: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 1999. – 201 б.

[13] Баҳриддинова Б. Феъл луғавий шакллари тизими: Филол. фанл. номз. дисс. – Самарқанд, 2002. – 135 б.

[14] Шабанов Ж. Турк ва ўзбек тилларида фаол ҳаракат феълларининг семантикаси: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2003. – 118 б.

[15] Исақова Г. Ўзбек тилидаги “қилмоқ” феълининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент, 2008. – 127 б.

[16] Kasimova M. O‘zbek tilidagi fe’llarda semantik graduonimiya va uning leksikografik ahamiyati: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2023. – 51 b.

[17] Karimjonova Sh. O‘zbek va ingliz tillarida kauzativ fe’llar tadqiqi: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Farg‘ona, 2024. – 152 b.

[18] Tashpulatova Sh. Ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holat fe’llarining semantik xususiyatlari, tarjimasi va leksikografik talqini: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Toshkent, 2024. – 127 b.

[19] Abidova Z. Ingliz va o‘zbek tillaridagi tafakkur fe’llarining semantik tipologiyasi va leksikografik talqini. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti nashriyoti, 2025. – 172 b.

[20] Ziyoyeva D.A. Ingliz va o‘zbek tillarida nutqiy faoliyat fe’llarining paradigmatik tahlili: Filol. fanl. b. fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro, 2025. – 144 b.